

**2022–2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da
amalga oshirishga oid Davlat dasturida belgilangan chora-tadbirlar ijrosi to’g’risida**
TAHLILY MA’LUMOT

2023 yil 28 novabr holatiga

Nº	Ustuvor yo’nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish shakli	muddati	Amalga oshirish mexanizmi	Mas’ul vazirlik va idoralar	Amalga oshirilgan ishlar, tayyorlangan loyiham (kimga qachon kiritilganligi, xat raqami va sanasi)
Davlat dasturida Ichki ishlar vazirligi tomonidan bevosita ishlab chiqilishi lozim bo’lgan normativ-huquqiy hujjatlar							
1.	Fuqarolarning harakatlanish erkinligi bilan bog’liq huquqlarini cheklashda qonuniylikni ta’minlash ustidan nazoratni kuchaytirish. <u>(Dasturning 31-bandi.)</u>	<p>Harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslami hisobga olish bo’yicha yagona elektron reestri shakllantirish, yuritish va undagi ma’lumotlardan foydalanish tartibini quyidagilarni nazarda tutgan holda belgilash:</p> <p>vakolatlari organlar tomonidan Yagona elektron reestri shakllantirish, yuritish va undagi ma’lumotlardan foydalanish, jumladan tegishli ma’lumotlarni harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslarning qarindoshlari yoki advokatlariga taqdim etish tartibi;</p> <p>Yagona elektron reestri qomunchilikda belgilangan talablar va shartlarda ishlab chiqish, takomillashtirish va keyinchalik texnik qo’llab-quvvatlash bo’yicha buyurtmachi hamda axborot va kiberxavfsizlikni ta’minlash bo’yicha vakolatlari organni belgilash;</p> <p>Yagona elektron reestri ishlab chiqish va shakllantirish bilan bog’liq xarajatlarni moliyalashtirish tartibi;</p> <p>Mas’ul vazirlik va idoralarning xodimlarini yangi tartibning mazmun-mohiyati va harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar bilan ishslash masalalari bo’yicha o’qitish belgilangan.</p>	Vazirlar Mahkamasi qarori	2023 yil may	Hisob-kitoblarga asosan	Ichki ishlar vazirligi <i>(P.Bobojonov), Bosh prokuratura (N.Yo’ldoshev) Sog’lijni saqlash vazirligi (A.Inoyatov) Davlat xavfsizligi xizmati (A.Azizov) Adliya vazirligi (A.Tashqulov)</i>	To’liq bajarildi. Mazkur bandda belgilangan vazifa ijrosini ta’minlash maqsadida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslarni hisobga olishning yagona elektron reestrini joriy etish to’g’risida” 2023 yil 31 avgust kunidagi 431-sont qarori qabul qilindi.
2.	Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi tashkiliy-boshqaruv faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish. <u>(Dasturning 32-bandi.)</u>	<p>Ichki ishlar organlarining tergov bo’linmalari faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida yagona boshqaruv tizimini yaratish;</p> <p>Hududiy tergov bo’linmalari xodimlarini ishga qabul qilish, lavozimga tayinlash va rag’batlanirish tartibini takomillashtirish;</p> <p>Jinoyatlarni tergov qilish jarayoniga raqamlı texnologiyalarni keng joriy etish.</p>	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihami.	2023 yil avgust	Hisob-kitoblarga asosan	Ichki ishlar vazirligi <i>(P.Bobojonov), Bosh prokuratura (N.Yo’ldoshev) Adliya vazirligi (A.Tashqulov)</i>	Bajarildi. Mazkur band ijrosini ta’minlash maqsadida hozirda Ichki ishlar vazirligi Tergov departamentida malakali mutaxassislardan iborat ishchi guruh tuzilib, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaror loyihasi ishlab chiqilib, taalluqli vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda 2023 yil 29 iyul kuni 1/1232-sont xat bilan Vazirlar Mahkamasiga ko’rib chiqish uchun kiritilgan. (ID-78208). Loyiha Vazirlar Mahkamasi tomonidan ko’rib chiqilib, 2023 yil 28 avgustdagagi 12/78208/1-410-sont xat bilan O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritilgan.
3.	Transport vositasida yo’l-harakati qoidalari buzganlik holatlarini aniqlash tartibini takomillashtirish. <u>(Dasturning 33-bandi.)</u>	Transport vositasi mulkdorining transport vositasi boshqarish huquqi o’tkazilgan shaxs bilan birgalidagi murojaatiga ko’ra vakolatlari organ tomonidan huquqbazarliklarni qayd etish tizimiga tegishli o’zgartirishlar kiritish hamda	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihami.	2023 yil noyabr	Hisob-kitoblarga asosan	Ichki ishlar vazirligi <i>(P.Bobojonov), Oliy sud (B.Islamov)</i>	Bajarildi. Mazkur bandda belgilangan vazifa ijrosini samarali tashkillashtirish uchun Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo’l harakati xavfsizligi xizmati tomonidan quyidagi loyiham

No	Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish shakli	muddati	Amalga oshirish mexanizmi	Mas'ul vazirlik va idoralar	Amalga oshirilgan ishlar, tayyorlangan loyihalar (kimga qachon kiritilganligi, xat raqami va sanasi)
		ushbu transport vositasida sodir etilgan yo'l harakati qoidalari buzilganligi uchun boshqarish huquqi o'tkazilgan shaxsga nisbatan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomani rasmiylashtirish tartibini joriy etish.			Adliya vazirligi (A.Tashqulov)	ishlab chiqildi: “O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga yuridik shaxslarga tegishli transport vositasidan foydalanim sodir etilgan yo'l harakati qoidalari buzilganlik uchun javobgarlikni belgilash tartibini takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni loyihasi ishlab chiqildi. (ID-84229) Loyiha Vazirlar Mahkamasi tomonidan ko'rib chiqilib, 2023 yil 16 noyabrdagi 12/84229/1-2139-son xat bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritilgan. Vazirlar Mahkamasining “Avtomototransport vositasining mulkdorlariga transport vositasini boshqarish huquqi o'tkazilgan shaxs bilan birgalikda tegishli huquqni belgilovchi hujjatni taqdim etgan holda, davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati organlarini transport vositasini boshqarish huquqini o'tkazganligi haqida xabardor qilish tartibini joriy etish to'g'risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqildi. (ID-84228) Loyiha Vazirlar Mahkamasi tomonidan ko'rib chiqilib, 2023 yil 15 noyabrdagi 12/84228/1-2139-son xat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasiga kiritilgan.	
4.	Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasini “ shahar avtomobillar emas, balki piyodalar uchun ” g'oyasi asosida isloq qilish. <u>(Dasturning 34-bandi.)</u>	Nukus va Toshkent shaharlarida hamda viloyatlar va tumanlar markazlarida transport vositalari harakatlanishining eng yuqori tezligini soatiga 70 kilometrdan 60 kilometrgacha tushirish.	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari.	2023 yil mart	Hisob-kitoblarga asosan	Ichki ishlar vazirligi (P.Bobojonov), manfaatdor vazirlik va idoralar	To'liq bajarildi. Mazkur bandda belgilangan vazifa ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yo'l harakati qoidalariga avtomobil yo'llarida harakat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish kiritish to'g'risida” 2023 yil 3 aprel kunidagi 140-son qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi